

NEOLOGIZMLAR VA ULARNING O‘Z QATLAM BILAN PARONIMIYASI

Toshtemirov Farhod Shodiyevich
Qarshi davlat universiteti magistri

Annotatsiya: Yangi so‘zlar orqali tilimizning boyishi. Neologizmlarning o‘z qatlam bilan paronimiyasi. Paronim-neologizmlar lug‘ati leksikografiyaga kirish muammolari.

Tayanch so‘zlar: neologizm, ijtimoiy tarmoq, paronimlar, muqobil variant, so‘z o‘zlashishi, tilning boyishi, paronim-neologizmlar lug‘ati.

O‘zbek tili yangi so‘zlar bilan kengayib, boyib bormoqda. Bu boyish o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan neologizmlar, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar, siyosat, iqtisod va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘ladi.

Hozir barcha sohalarda mavjud va bizning kundalik iste‘molimizga kirib kelayotgan hamda leksikamizni boyitayotgan neologizmlar hozirgi vaqtda keng foydalanilayotgan so‘zlardir. Biroq neologizmlar o‘rniga leksikamizda mavjud bo‘lgan muqobil variantini tanlash va shu muqobil variantlarga almashtirish dolzarb masala. Bu yo‘nalishga neologizmlarni muqobil variantlarini topish, keyin bosqichda shu muqobil variantni muomalaga keng targ‘ib qilish.

Barcha lingvistik o‘zgarishlar haqida rus tilshunosi G.N.Sklyarevskaya shunday deydi: “ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladi, ularning tezkorligi lingvistik to‘fonlar taassurotini keltirib chiqaradi. Bu holat ko‘pchilikni, shu jumladan tilshunoslarni zamonaviy rus tilining korrupsiyasi, yemirilishi, inqirozi, tanazzulga uchrashi haqida gapirishga, uni saqlab qolish va qutqarish masalasini ko‘tarishga asos beradi”[8. 177].

Bizning leksikonimizni tashkil qilgan so‘zlarning katta qismi ma’no va shakl jihatidan bir-biriga shaklan, ma’no jihatidan o‘xshash, qarama-qarshi ma’noli hamda bir tovush bilan farqlanadi.

Leksikamizni boyitayotgan neologizmlar o‘z qatlam bilan omonimik, sinonimik va paronimik qatorni yuzaga keltiradi. Paronimlar barcha tillarda, xususan o‘zbek va rus tilidagi lug‘atlarning murakkab kategoriyasidir. Ushbu turkumning qamrovi hali hamon aniq belgilanmagan va to‘liqligicha o‘rganilmaganligi, shuning sababdan ushbu manbalarni tushunish-tushuntirish ayni vaqtda biz uchun qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bu yo‘nalishda qilinayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, paronimik juftlarning, ba’zan hatto paronimik qatorlarning paydo bo‘lishi va shakllanishining murakkab tabiati paronimik korpusni yaratishni mushkullashtiradi.

Paronimlar umumiy ma'noviy markazga va umumiy so'z yasalish qolipiga ega bo'lgan, bir xil mavzu-mantiqiy qatorga va nutqning bir qismiga taaluqli bo'lgan, lekin qoida asosan turli xil ma'nolarni anglatadigan so'zlar sifatida qaraladi.

Lekin shuni aytish lozimki, shu vaqtga qadar paronim-neologizmlarlari lug'ati mavjud emas. Bu borada paronim-neologizmlar lug'atini yaratish dolzarb bo'lib qolaveradi, chunki bu lug'at leksik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shunday ekan, paronim-neologizmlar lug'ati yangilangan tizim sifati bosqichma-bosqich taqdim etiladi va yangi tadqiqodlar sifatidan o'rganiladi.

Boshqa tillar va ingliz tillaridan aslidek olingan so'zlar neologizmlar hisoblanadi. Neologizmlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Shaklning neologizmlari.
2. Semantik neologizmlar.
3. Funktsional neologizmlar.
4. Ijtimoiy neologizmlar
5. Texnologik neologizmlar
6. Stilistik neologizmlar

Tilimizdagi **klub** so'zi bilan **klab** so'zi paronim va bu so'zlarga nisbatan paronim-neologizm atamasi ishlatishimiz to'g'ri bo'ladi.

Klub

1. Kishilarning siyosiy ongini, madaniyatini va umumiy saviyasini oshirish, ularning dam olishini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi madaniy-ma'rifiy, siyosiy yoki boshqa xarakterdagi ijtimoiy tashkilot, muassasa.

yosh turistlar uchun klub tashkilotchilari g'oyat qiziqarli va mazmunli programma tayyorlashdi. Gazetadan

2. Shu muassasa joylashgan bino.

Zavod klubi. To'qimachilar klubi.-O'shandayam ovloqdagi temiryo'lchilar madaniyat saroyining klubida tomosha ko'rishdi. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

Klab

Klab sendvich - to'g'ralgan pishirilgan parranda go'shti, qo'y yoki qovurilgan cho'chqa go'shti, salat, pomidor va mayonez bilan nonli sendvich (odatda qovurilgan). Sandvich ko'pincha chorak yoki yarmiga bo'linadi va kokteyl tayoqchalari bilan birga saqlanadi. Zamonaviy versiyalar ko'pincha qo'shimcha non bo'lagi bilan ajratilgan ikkita qatlamdan iborat.

Bu kabi neologizmlarning iste'molimizdagi qatlam bilan paronimiyani yuzaga keltirishi paronim-neologizlar lug'atini tuzish dolzabligidan dalolat beradi

АДАБИЙОТ

1. Shukurov O.U. Term neologisms as a result of lexical nomination // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) —Spain, 2022. —№ 3 — 263-265 P
2. Varxudarov S.G. va Novikov L.A. Каким должен быть учебный словарь? // Русский язык за рубежом. — 1971. — № 3. — 46—51 b.
3. Denisov P.N. Основные проблемы теории лексикографии. Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. —Moskva., 1976.
4. Denisov P.N. Лексика русского языка и принципы ее описания. — Moskva: Rus tili, 1993.
5. Morkovkin V.V. Основы теории учебной лексикографии: Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. — Moskva.: A.S.Pishkin nomidagi rus tili instituti, 1990.
6. Sayaxova L.G. Словари в культурологической концепции обучения языкам // Filologik ta'lim tizimida so'z: Butun Rossiya ilmiy-tadqiqot konferensiyasi manbasi 26—27-oktabr 1999-yil. / L.G. Sayaxova va T.N. Dorojkina muharrirligi ostida. — UFA, 2001. — 22—25 b.
7. G.N.Sklyarevskaya Слово в меняющемся мире: русский язык начала XXI столетия: состояние, проблемы, перспективы // Slavyan tillari bo'yicha tadqiqot. — № 6. —Seul, 2001.
8. Skorina M.A. Об одном существенном типологическом признаке учебного словаря //O'quv lug'atlarini ishlab chiqish teoriyasi asoslari: Ilmiy ishlar to'plami. /N.M.Shanskovova Y.A.Bistrovov muharrirligi ostida. — Moskva: SSSR pedagogika fanlar akademiyasi, 1981. — 58—70 b.
9. Mahmudov N. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: me'yor va millilik // O'zbek tili va adabiyoti. 2010 —№ 6— 160 b